



BANKLAR VA ULARNING PAYDO BO‘LISH TARIXI HAMDA O‘ZBEKISTONDA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Eshqulov Baxodir Karimberdi o‘g‘li

“Yoshlar — kelajagimiz” jamg‘armasi ijro etuvchi direktori o‘rinbosari

baxodireshqulov@icloud.com

Annotatsiya.

Ushbu maqolada mamlakat iqtisodiyotida banklarning o‘rni va roli haqida fikrlar bildirilgan. Banklar va ularning paydo bo‘lish tarixi, shuningdek, O‘zbekistonda rivojlanish bosqichlari haqida so‘z yuritilgan. Banklarning paydo bo‘lish omillari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Bank, bank faoliyati, bank tarixi, pul, kapital, O‘zbekiston iqtisodiyoti, rivojlanish omillari.

Qadim zamonlardan beri pul muomalasi mavjud bo‘lganligining ko‘plab moddiy dalillariga qaramay, dastlabki oddiy kredit muassasalari va banklarning paydo bo‘lish davri haqidagi savollar hamon javobsiz qolmoqda. Banklar paydo bo‘lishining aniq tarixiy sanasini aniqlashning imkoni yo‘qligi esa bank faoliyatining rivojlanish elementlari Italiya, Gretsiya, Bobil, Misr va boshqa mamlakatlarda uchraganligi bilan bog‘liq. Odatda ibodatxonalar odam puli saqlab qo‘yiladigan joylar bo‘lgan. Miloddan avvalgi 210-yil Rimda maxsus qarorga binoan Forumda pul ayirboshlash uchun joy ajratib berilgan. “Bank” so‘zining o‘zi Italiyada paydo bo‘lgan. O‘rta asrlarda pul almashtiruvchilar shahar ko‘chalari yoki maxsus o‘rindiqlarda o‘tirgan. Italyancha “banko” so‘zi “o‘rindiq” ma’nosini beradi. Shu so‘zdan hozirgi “bank” so‘zi kelib chiqqan.

Zamonaviy bank tizimi ilk bor 1587-yil Venetsiyada “Banko di Rialto” tashkil etilganida paydo bo‘lgan. U mablag‘ qabul qilgan hamda sarmoyadorlarga ma’lum summa uchun chek yozishga ruxsat bergan. 1619-yil “Banko del Jiro” bu bankni egallab olib, tilla hamda kumush ko‘rinishida omonat qabul qilish haqida qog‘oz tarqata boshladi. Ushbu qog‘ozlar pul o‘rnida ishlatilgan. 1609-yil tashkil topgan “Amsterdam banki” ham “bank pullari” nomli qog‘ozlar tarqatgan. 1694-yil



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th April, 2025

Angliyada “Angliya banki” tashkil topgunga qadar bankir vazifasini zargarlar bajargan. U 1825-yilgacha Angliyadagi yagona bank bo‘lgan. Amerikadagi ilk bank — Shimoliy Amerika banki Kongress tomonidan 1782-yilda tuzilgan¹. Uyg‘onish davrida bank ishi yanada rivojlangan. Bank uylari juda yuqori obro‘ga ega bo‘lgan. XIX asrda bank sektori yanada jadal rivojlana boshlagan. Sanoat inqilobining boshlanishi kreditlash hajmini oshirishni talab qilgan va kredit berish uchun yirik banklar tashkil etilgan. O‘shandan beri bank tizimi o‘zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarga mos ravishda rivojlanishda davom etmoqda. Bank tizimi tarixidagi eng muhim davrlardan biri bu 1929-yildagi inqiroz. Ushbu inqiroz banklarning global qulashiga sabab bo‘lgan. Ko‘pgina banklar o‘z eshiklarini yopishga majbur bo‘lishgan, bu esa bank tizimining qisqarishiga olib kelgan. Ikkinchi jahon urushi davrida dunyoning barcha asosiy kuchlari iqtisodiyotga faol aralashishga majbur bo‘ldilar va bank tizimini jadal tartibga solishni boshladilar. XX-asrning oxirida bozor iqtisodiyotiga sodiq qolgan mamlakatlarning aksariyati bank tizimini to‘liq tartibga solishdan voz kechishgan. Bu banklarga raqobatbardosh bo‘lish va yuqori daromad olish imkonini bergan².

O‘zbekistonda birinchi bank muassasasi 1875-yil Toshkentda ochilgan Rossiya imperiyasi davlat bankning filiali bo‘lgan. XIX-asrning oxirida Turkistonda rus kapitali ishtirokidagi O‘rta Osiyo aksiyadorlik banki (1881), Volgakama banki (1893), Rus- Xitoy (Rus-Osiyo) banki (1903), Azov-Don savdo banki (1910), Nijniy Novgorod-Samara banki (1899), Poltava Yer banki (1901)ning filiali, bo‘lim va agentliklari faoliyat olib borgan. Oktabr to‘ntarishidan so‘ng barcha bank sovet hokimiyati tomonidan natsionalizatsiya qilingan. O‘zbekistonda bank tizimi 1924-yildan boshlab sobiq SSSR bank tizimining tarkibiy qismi sifatida tashkil qilingan. 1992-yilga qadar SSSR Davlat banki (1923; 1921–23-yillarda RSFSR Davlat banki), SSSR Qurilish banki (1959; 1922–59-yillarda SSSR Savdo banki), SSSR Tashqi savdo banki (1924) ning O‘zbekiston idora (kontora)lari respublikadagi bank muassasalari ishiga rahbarlik qilgan. SSSRning parchalanishiga qadar O‘zbekistonda mustaqil bank tizimini yaratish maqsadlarida 1991-yil 15-fevralda

¹ <https://sinaps.uz/bilasizmi/6388/>

² Алексеев П.В. Банковское дело: управление в современном банке. Учебное пособие для ВУЗов / П.В. Алексеев, сост. -М.: КноРус, 2018



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th April, 2025

Respublika Oliy Kengashi sessiyasida respublika hududidagi bank faoliyatining huquqiy asoslari belgilab berilgan O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni³ qabul qilingan va shu vaqtdan boshlab respublikaning haqiqiy, mustaqil bank tizimi shakllana boshlagan. Sobiq SSSR bankining respublika idoralari mustaqil bank sifatida O‘zR Markaziy banki tomonidan ro‘yxatga olingan. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini shakllantirish va rivojlantirish strategiyasi iqtisodiyotni xo‘jalik yuritishning bozor sharoitlariga bosqichmabosqich o‘tkazish dasturiga mos keladi. O‘tgan davrda bank islohotlari davomida milliy bank tizimining 2 bosqichli strukturasi (yuqori bosqichda — Markaziy bank, quyi bosqichda — tijorat banklari) huquqiy jihatdan mustahkamlandi; bankning soni va ular ko‘rsatadigan xizmat turlari ko‘paydi.

1995-96-yillarda bank qonunchiligi yanada takomillashdi. O‘zRning “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi (1995-yil 21-dekabr) Qonuni bank tizimining huquqiy asoslarini to‘ldiribgina qolmasdan, O‘zbekiston Respublikasi markaziy bankining alohida maqomi, maqsadlari, vazifalari hamda vakolatlarini ham aniq belgilab berdi. O‘zRning “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida” 1996-yil 25-apreldagi yangi Qonuni esa tijorat banki faoliyatining barcha huquqiy asoslarini xalqaro standartlar darajasida belgilab berdi. Tarkibida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, 12 viloyat va Toshkent shahar boshqarmalari bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki O‘zRning bosh banki hisoblanadi.

1995–96-yillarda “Asaka” ixtisoslashtirilgan davlat-aksiyadorlik tijorat banki, “Aloqabank” aksiyadorlik tijorat banki, “Toshkentijtimoiyuyjoy-bank” aksiyadorlik tijorat banki, “Uzsayohatinvestbank” O‘zbekiston aksiyadorlik tijorat investitsiya banki va “Zamin” ixtisoslashtirilgan davlat-aksiyadorlik ipoteka banklari tashkil etildi. “O‘zdehqonsanoatbank” aksiyadorlik tijorat banki “Paxtabank” ixtisoslashtirilgan aksiyadorlik tijorat bankiga, “O‘zjamg‘armabank” Xalq bankiga aylantirildi⁴.

Xozirda mamlakatimizda 30 dan ortiq banklar mavjud bo‘lib, ular aholi va tadbirkorlarga hizmat qilib kelishmoqda.

³ <https://xs.uz/uz/post/banklar-va-bank-faoliyati-togrisida-yangi-tahriri>

⁴ У.Азизов, Т.Каралиев и др. «Банковское дело» учебное пособие. Ташкент 2018 г.



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th April, 2025

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. У.Азизов, Т.Каралиев и др. «Банковское дело» учебное пособие. Ташкент 2018 г.
2. Алексеев П.В. Банковское дело: управление в современном банке. Учебное пособие для ВУЗов / П.В. Алексеев, сост. -М.: КноРус, 2018 г.
3. <https://sinaps.uz/bilasizmi/6388/>
4. <https://xs.uz/uz/post/banklar-va-bank-faoliyati-togrisida-yangi-tahriri>